



jild. 3 No 2 (2026)

**MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL**

**MENEJMENT VA IQTISODIYOT
ILMIY-TADQIQOT JURNALI**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ**



journals@timeedu.uz



+998 95 651 90 00

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT MENEJMENT VA IQTISODIYOT INSTITUTI



**“MUHANDISLIKDA SUN'IY INTELLEKT VA
RAQAMLI INNOVATSION
TEKNOLOGIYALAR: ZAMONAVIY
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR”
MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**



FARG'ONA-2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT MENEJMENT VA IQTISODIYOT INSTITUTI

"MUHANDISLIKDA SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR:

ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR" MAVZUSIDAGI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

21 MAY 2026 YIL



МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ

УЗБЕКИСТАН

ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ УПРАВЛЕНИЯ И ЭКОНОМИКИ

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ НА ТЕМУ

«ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЦИФРОВЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В

ИНЖЕНЕРИИ: СОВРЕМЕННЫЕ РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ»

21 МАЯ 2026 ГОДА



MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF

UZBEKISTAN

TASHKENT INSTITUTE OF MANAGEMENT AND ECONOMICS

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON THE THEME "ARTIFICIAL

INTELLIGENCE AND DIGITAL INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ENGINEERING: MODERN

SOLUTIONS AND PROSPECTS" 21 MAY 2026

“Muhandislikda sun’iy intellekt va raqamli innovatsion texnologiyalar: zamonaviy yechimlar va istiqbollar” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tezislar to‘plami. 2026-yil 21-may.

Ushbu to‘plamda — “Muhandislikda sun’iy intellekt va raqamli innovatsion texnologiyalar: zamonaviy yechimlar va istiqbollar” Xalqaro ilmiy –amaliy anjuman ishtirokchilarining tezislari keltirilgan. Anjuman kun tartibiga kiritilgan masalalar dolzarb bo‘lib, u yalpi ma’ruzalar va amaliy zamonaviy muhandislik ta’limida raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt, muhandislik yechimlari va sanoat 4.0, robototexnika va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish, ta’limda axborot va innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi, biznes jarayonlar va raqamli iqtisodiyotga axborot texnologiyalarining o‘rni kabi sho‘balardan tashkil topgan. To‘plam sohasi mutaxassislari, ilmiy tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

Maqolalarda keltirilgan ma’lumotlarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldir.

©Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tezislar to‘plami



☎ +998 95 651 90 00

✉ journals@timeedu.uz

📍 Shota Rustaveli ko'chasi, 114

🌐 tmijournals.ndc-agency.uz

✈ TMII_ilmiy_bolim

Tahririyat jamoasi

BOSH MUHARRIR:

Narbayev Sharafatdin Kengeshovich

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Norbekov Shohzod Mamarasul o'g'li

TAHRIR HAY'ATI

1. Sharipov Qo'ngratbay Avezimbetovich — O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri, tfd, professor.
2. Axmedov Xojiakbarxon Dilshatovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti rektori, ifn, dotsent.
3. Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich — O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademiyasi, ifd, professor.
4. Xotamov Ibodullo Sadulloyevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrasini professori, ifn.
5. Sultonov Mansur Qilichovich — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi ekspertlar guruhi rahbari, tffd, dotsent.
6. Chertovitskiy Aleksandr Stepanovich — "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori.
7. Popkova Yelenadyevna — Rossiya Gen "Ilmiy aloqalar instituti" avtonom notijorat tashkiloti prezidenti, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
8. Dr Go Khang Ven — Malayziyaning INTI xalqaro universiteti prorektori.
9. Wang Cheng — XXR "Hebei Institute of Mechanical and Electrical Technology" instituti iffd, dotsent.
10. Xakimova Nilufar Karimkulovna — O'zMU huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti PhD, ilmiy xodimi.
11. Yo'ldoshev Nuriddin Qurbonovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Biznes boshqaruvi va moliya kafedrasini ifd, professor.
12. Chariyev Qurbon Amirovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrasini professori, ifd.
13. Abduraimova Nigora Radjabovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrasini dotsenti, iffd.
14. Anarqulova Gulnaz Mirzaxmatovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini professori, ifn.
15. Yakubov Sadiqjan Bakiyevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini professori, ifn.
16. Kadirova Istora Bobirovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Karyera markazi direktori, iffd, dotsent.
17. Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti, iffd, dotsent.
18. Mamatov Narzullo Solidjonovich — "TIQXMMI" MTU kafedra mudiri, texnika fanlari doktori, professor.
19. Turaqulov Otabek Xolmirzayevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri, tffd, dotsent.
20. Toirov Shuxrat Abduganiyevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasini professori vb, tffd.
21. Yusupov Rustam Abdimuratovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasini dotsenti, tffd.
22. Nazarov Xolmo'min Abduxobovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasini dotsenti, fmf.
23. Asrayev Muhammadmullo Abdulla o'g'li — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasini dotsenti, tffd.
24. Yunusova Shaxnoza Muxamedumarovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini dotsenti, fffd.

6-SHO'BA: BIZNES JARAYONLAR VA RAQAMLI IQTISODIYOTGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI.

SANOAT KORXONALARIDA OPTIMAL XARAJATLAR STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI

Axmedov X.D.

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti dotsenti

Kamalov Sh.F

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat korxonalarining raqobatbardoshlik darajasini oshirish maqsadida optimal harajatlarni strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish masalalari o'rganildi. Harajatlarni boshqarish jarayonlarini samarali tashkil etish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish, resurslardan oqilona foydalanish, va moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilashga qaratilgan strategik yondashuvlar tahlil qilindi.

Maqolada doirasida sanoat korxonalarining iqtisodiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillar o'rganilib, harajatlarni optimallashtirishga imkon beruvchi zamonaviy boshqaruv usullari tahlil etildi. Shu bilan birga, strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlovchi omillar – korxona ichki resurslari, texnologik yangilanish va inson kapitalining roli tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: sanoat korxonalari, harajatlarni boshqarish, optimal strategiya, raqobatbardoshlik, iqtisodiy samaradorlik, resurslarni boshqarish.

Abstract. This article examines the issues of developing and implementing an optimal cost strategy aimed at enhancing the competitiveness of industrial enterprises. Strategic approaches focused on reducing production costs, rational use of resources, and improving financial performance through the effective organization of cost management processes are analyzed.

The study explores internal and external factors influencing the economic activities of industrial enterprises, as well as modern management methods that enable cost optimization. Particular attention is given to the factors ensuring the successful implementation of the strategy, such as internal resources of the enterprise, technological innovations, and the role of human capital.

Keywords: industrial enterprises, cost management, optimal strategy, competitiveness, economic efficiency, resource management.

Аннотация В данной статье исследованы вопросы разработки и реализации оптимальной стратегии затрат с целью повышения уровня

конкурентоспособности промышленных предприятий. Анализируются стратегические подходы, направленные на снижение себестоимости продукции, рациональное использование ресурсов и улучшение финансовых показателей посредством эффективной организации процессов управления затратами.

В рамках статьи изучены внутренние и внешние факторы, влияющие на экономическую деятельность промышленных предприятий, а также рассмотрены современные методы управления, позволяющие оптимизировать затраты. Особое внимание уделено факторам, обеспечивающим успешную реализацию стратегии, таким как внутренние ресурсы предприятия, технологические обновления и роль человеческого капитала.

Ключевые слова: промышленные предприятия, управление затратами, оптимальная стратегия, конкурентоспособность, экономическая эффективность, управление ресурсами.

Kirish.

Sanoat korxonalarida optimal xarajatlar strategiyasini amalga oshirish Bugungi globallashuv va tezkor texnologik rivojlanish davrida sanoat korxonalarida optimal harajatlar strategiyasini ishlab chiqish va joriy etish iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashning eng muhim vositalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon iqtisodiyotining yetakchi ishtirokchilari, jumladan AQSh, Yevropa Ittifoqi va Xitoy kabi davlatlarda sanoat korxonalarining harajatlarini boshqarish masalasi iqtisodiy strategiyaning ustuvor yo'nalishiga aylangan. Bu davlatlarda zamonaviy boshqaruv mexanizmlari, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalangan holda ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilish, ularni maqbullashtirish hamda resurslardan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishilmoqda. Xususan, optimal harajatlar strategiyasi nafaqat ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, balki korxonaning ichki operatsion jarayonlarini takomillashtirish, xarajatlar tuzilmasini puxta rejalashtirish, isrofgarchilikning oldini olish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv nafaqat qisqa muddatli moliyaviy foyda keltiradi, balki uzoq muddatda barqaror rivojlanish, bozor talablariga moslashish va yangi raqobat muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkonini beradi.

McKinsey va PwC kabi konsalting kompaniyalarining so'nggi tadqiqotlariga ko'ra, samarali harajatlar boshqaruvi joriy etilgan korxonalar foyda marjasini 15–20% ga oshirish imkoniga ega bo'lgan. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga

oshirish uchun strategik boshqaruv yondashuvlari, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar faol qo'llanilmoqda. Shuningdek, 2030-yilga kelib global sanoat sektori raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali harajatlarni 20-30% gacha kamaytirishi mumkinligi e'tirof etilmoqda. Misol uchun, General Electric, Toyota, va Siemens kabi yirik sanoat gigantlari "lean manufacturing" (oqilona ishlab chiqarish) va "six sigma" (olti sigma) metodologiyalarini muvaffaqiyatli qo'llab, tannarxni pasaytirish va samaradorlikni oshirishga erishgan. Toyota kompaniyasining ishlab chiqarish jarayonlarida "Just-in-Time" tizimidan foydalanishi harajatlarni sezilarli darajada kamaytirishga yordam bergan bo'lsa, General Electric kompaniyasi raqamli boshqaruv tizimlari orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga muvaffaq bo'ldi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni Rivojlantirish Tashkiloti (UNIDO) kabi xalqaro tashkilotlar sanoat korxonalarida harajatlarni boshqarish va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha global tajribalarni ommalashtirmoqda. UNIDO tomonidan amalga oshirilayotgan "Green Industry" tashabbusi sanoat korxonalarini resurslarni tejash va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan harajatlarni optimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqishga rag'batlantirmoqda.

O'zbekiston sharoitida ushbu mavzu ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega. Chunki, sanoat sektori iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2023-yilda 30,1% ni tashkil etgan va sanoat korxonalarining umumiy ishlab chiqarish hajmi 500 trillion so'mdan oshgan. Bu sohada samaradorlikni oshirish iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan, sanoat korxonalarida harajatlarni optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar, jumladan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va boshqaruvni modernizatsiya qilish bo'yicha davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda Prezident qarori asosida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha qator investitsion loyihalar yo'lga qo'yilgan. Ushbu chora-tadbirlar doirasida harajatlarni boshqarishning samarali usullarini joriy etish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ammo, amalga oshirilayotgan islohotlar ko'lami kengligiga qaramasdan respublikamiz sanoat korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligi nisbatan past darajada qolmoqda. Bu esa mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, mazkur dissertatsiya mavzusi O'zbekiston sharoitida nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb sanaladi. Jahon amaliyotidagi ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni mamlakat sanoat korxonalari faoliyatiga moslashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni

oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin. Ushbu tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan tavsiyalar sanoat korxonalarida resurslarni oqilona taqsimlash, ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, harajatlarni optimallashtirish korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va ularning global bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Sanoat korxonalari iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi, chunki ular nafaqat tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda, balki ish o'rinlarini yaratishda, soliq tushumlarini ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega. Sanoat sektori mamlakatning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) ning muhim qismini tashkil etadi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga, sanoat korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash zarurati kundankunga ortib bormoqda.

Sanoat korxonalarida optimal xarajatlar strategiyasini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish hozirgi zamon iqtisodiyoti sharoitida eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Olimlarning fikricha, korxona xarajatlarni boshqarish nafaqat moliyaviy natijalarga, balki korxonaning umumiy strategik rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, A.Chandler o'zining "Strategy and Structure" nomli asarida korxona strategiyasi bilan uning ichki tuzilmasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka e'tibor qaratgan va "har qanday iqtisodiy strategiya, jumladan, xarajatlarni boshqarish strategiyasi ham ishlab chiqarish samaradorligiga asoslanishi lozimligini" ta'kidlagan.

Mashhur iqtisodchi M.Porter esa o'zining raqobat strategiyasi haqidagi nazariyasida xarajatlar ustunligi strategiyasini raqobatdosh ustunlikka erishishning asosiy vositalaridan biri sifatida ko'rsatgan. Unga ko'ra, "korxona xarajatlarni minimal darajagacha kamaytirishga intilsa, u o'z mahsulotini raqobatchilarga nisbatan arzonroq narxlarda taklif qilish imkoniyatiga ega bo'ladi va bozorni egallashda ustunlikka erishadi".

Yevropa iqtisodiy maktabi vakili P.Drucker esa xarajatlarni boshqarishda faqat tejamkorlik emas, balki "to'g'ri xarajat" tamoyiliga amal qilishni tavsiya qiladi. Ya'ni, har bir xarajat korxonaning umumiy maqsadlariga qanday hissa qo'shishini tahlil qilish zarur. Druckerning fikricha, "samarali xarajat strategiyasi – bu o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashuvchi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi va barqaror o'sishga zamin yaratadigan yondashuvdir".

Xarajatlarni optimallashtirish masalasida mahalliy olimlar ham bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, O'zbekistonlik iqtisodchi olim Sh.Xakimov "sanoat korxonalarida xarajatlar tahlilini chuqurlashtirish, xarajat

markazlarini aniqlash va har bir ishlab chiqarish bo'g'inining xarajat samaradorligini o'rganish orqali resurslardan foydalanishni yaxshilash mumkinligini" qayd etadi. Shuningdek, u iqtisodiy barqarorlikka erishishda optimal xarajalar strategiyasini korxona ichki siyosatining ajralmas qismi sifatida ko'radi.

Shu bilan birga, xalqaro amaliyotda keng qo'llanilayotgan "lean manufacturing" (tejamkor ishlab chiqarish) konsepsiyasi asoschisi J.Womack fikricha, xarajatlarni kamaytirishning eng samarali yo'li bu ortiqcha jarayonlarni bartaraf etish, vaqt va resurslarni isrofgarchilikdan himoya qilishdir. Bu yondashuv sanoat korxonalarida ichki jarayonlarni qayta ko'rib chiqishga, ishlab chiqarish zanjirida samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Olimlar fikrlari shuni ko'rsatadiki, optimal xarajalar strategiyasini amalga oshirish nafaqat iqtisodiy samara, balki tizimli yondashuv, strategik boshqaruv, innovatsion texnologiyalar va inson resurslarining samarali boshqaruviga asoslanadi. Ular korxonaning bozor sharoitlaridagi barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi deb aytishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni Rivojlantirish Tashkiloti (UNIDO) kabi xalqaro tashkilotlar sanoat korxonalarida harajatlarni boshqarish va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha global tajribalarni ommalashtirmoqda. UNIDO tomonidan amalga oshirilayotgan "Green Industry" tashabbusi sanoat korxonalarini resurslarni tejash va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan harajatlarni optimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqishga rag'batlantirmoqda. metodologiyasi bobi esa tadqiqot dizayni, ma'lumotlarni to'plash jarayoni, tahlil uchun qo'llaniladigan usullar, tadqiqotni o'tkazish uchun zarur shart-sharoitlar, tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi, tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar kichik bo'limlarini o'z ichiga olgan.

Tahlil va natijalar

Yuqorida keltirilgan fikrlar sanoat korxonalarida optimal harajalar strategiyasini amalga oshirish muhim iqtisodiy masalalaridan biri hisoblanishini tasdiqlaydi. Bu strategiya, resurslarni samarali boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo'lin, ilmiy adabiyotda optimal harajalar boshqaruvi va uning sanoat korxonalari uchun ahamiyati haqida turli nazariy yondoshuvlar mavjud. Ular orasida iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga doir bir qator asosiy qarashlar o'rin

egallaydi. Sanoat korxonalarida optimal xarajatlarni strategiyasini amalga oshirish samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan turli ilmiy yondashuvlar va nazariyalarga asoslanadi. Ushbu yondashuvlarning asosiylariga quyidagilarni kiritish mumkin (1-jadval):

1-jadval

Sanoat korxonalarida optimal xarajatlarni strategiyasini amalga oshirishda asosiy ilmiy yondashuvlar

Ilmiy yondashuv	Xususiyati
Ishlab chiqarish xarajatlari nazariyasi	Korxonadagi barcha turdagi xarajatlarni tahlil qilish va minimallashtirishga e'tibor qaratadi. Ishlab chiqarish ko'lami, texnologiyasi va tashkiliy tuzilmasini hisobga olgan holda xarajatlarni optimallashtirishning turli modellarini o'z ichiga oladi.
Mashtab iqtisodiy nazariyasi	Ishlab chiqarish hajmi oshgani sayin, resurslardan foydalanishning yaxshilanishi va samaraliroq ishlashi tufayli birlik xarajatlari kamayishi mumkin, deb taxmin qiladi.
Qiymatga asoslangan xarajatlarni nazariyasi	Yakuniy iste'molchi uchun qiymatni saqlab qolgan holda xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarish jarayonining har bir bosqichida qo'shilgan qiymat nuqtai nazaridan xarajatlarni tahlilini o'z ichiga oladi.
Xarajatlarni boshqarish va byudjetlashtirish nazariyasi	Strategik xarajatlarni boshqarish, shu jumladan maqsadli rejalashtirish va xarajatlarni nazorat qilish, shuningdek, korxonaning barcha darajalarida nazorat qilish vositasi sifatida byudjetlashtirish va xarajatlarni rejalashtirishni amalga oshirishga e'tibor qaratadi.
Faoliyat turlari bo'yicha xarajatlarni hisobga olish tizimiga asoslangan xarajatlarni optimallashtirish nazariyasi	Muayyan faoliyat bilan bog'liq haqiqiy xarajatlarni aniqlashga va samaradorlikni oshirish uchun resurslarni taqsimlashni yaxshilashga yordam beradigan metodologiyani o'z ichiga oladi.
Doimiy takomillashtirish	Yo'qotishlarni kamaytirish va korxonadagi barcha jarayonlar samaradorligini oshirishga

nazariyasi	qaratilgan Lean, Six Sigma kabi usullarni o'z ichiga oladi, bu esa xarajatlarni kamaytirish va biznes jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi.
Ta'minot zanjiri boshqaruvi nazariyasi	Nafaqat ishlab chiqarish jarayonida, balki ta'minot zanjirining barcha bosqichlarida, jumladan, logistika, sotib olish, saqlash va tarqatishda ham xarajatlarni optimallashtirishni ko'rib chiqadi.

Tadqiqotchi A. A. Porshnev o'z izlanishlarida raqobatchilik salohiyatini "korxonaning maqsadli bozorda o'z mahsulotini samarali sotish, innovatsiyalarni joriy etish va yangi bozor segmentlarini egallash salohiyati" sifatida izohlaydi. Raqobatchilik salohiyatining mohiyatini aniqlash va baholashda korxonaning mavjud resurslari, ichki salohiyati, tashqi muhit omillariga javob qaytara olish qobiliyati, hamda strategik boshqaruv yondashuvlari muhim o'rin egallaydi. Bu salohiyat doimiy ravishda rivojlantirib borilishi lozim bo'lgan dinamik holat bo'lib, u bozordagi o'zgaruvchan sharoitlarga qarab yangilanib boradi. Ayniqsa, global miqyosdagi talablar, texnologik taraqqiyot, ekologik va ijtimoiy omillar bilan uyg'unlashgan holda raqobatchilik salohiyatini shakllantirish va baholash zamonaviy to'qimachilik korxonalari uchun muhim vazifadir.

To'qimachilik sanoati kontekstida raqobatchilik salohiyatini quyidagi asosiy ko'rsatkichlar orqali namoyon etish mumkin (1-rasm).



1-rasm. To'qimachilik sanoatida raqobatbardoshlik salohiyatining asosiy omillari

Ushbu rasmda to'qimachilik sanoatining raqobatbardoshlik salohiyatini belgilovchi asosiy omillar sifatida mahsulot sifati va dizayni, narx raqobatliliigi, innovatsion texnologiyalarni qo'llash hamda mehnat unumdorligi ko'rsatilgan. Tanlangan ko'rsatkichlar sanoatning hozirgi rivojlanish tendensiyalariga hamohang bo'lib, har biri ishlab chiqarish jarayonida muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston to'qimachilik sanoatining barqaror rivojlanishida "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi muhim o'rin egallaydi. Ushbu uyushma tarkibidagi korxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish faoliyati yil sayin kengayib bormoqda. Xususan, tola tayyorlash, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularga ishlov berish va boshqa to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish yo'nalishlarida iqtisodiy ko'rsatkichlar o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda.

Quyidagi jadvalda (2-jadval) 2019–2023-yillar davomida ushbu asosiy yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqarish hajmining dinamikasi, o'zgarishlar sur'ati va umumiy rivojlanish ko'rsatkichlari keltirilgan. Mazkur ko'rsatkichlar sohaning tizimli modernizatsiya qilinayotgani, ishlab chiqarish texnologiyalarining yangilanayotgani va eksport salohiyatining ortib borayotganini ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyoti uchun to'qimachilik tarmog'ining strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

2-jadval

"O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalar bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar 128, mlrd. so'mda

No	Ko'rsatkichlar nomi	2019	2020	Yillar 2021	2022	2023
1	To'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish	10699,7	17135,8	22656,6	29956,1	35070
2	To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1113,7	1936,6	2738,4	3872,1	5379
3	To'qimachilik mahsulotlariga ishlov berish	355,7	151,4	275,4	500,1	647,7

So'nggi yillarda "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalar tomonidan amalga oshirilgan ishlab chiqarish va investitsion faoliyat ularning iqtisodiy samaradorligida yaqqol ifodasini topmoqda. Xususan, 2019–2023-yillar

davomida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda.

O'zbekiston to'qimachilik sanoati so'nggi yillarda jadal rivojlanib, ishlab chiqarish hajmi bo'yicha barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Xususan, kalava ip, tayyor mato, trikotaj gazlama, tikuv-trikotaj mahsulotlari hamda paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari har yili ortib bormoqda. Bu holat mamlakatda mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining kengayib borayotganini, yangi texnologiyalarni joriy etish orqali mahsulot sifati va miqdorining oshirilayotganini ko'rsatadi.

Quyida keltirilgan 3-jadvalda 2019–2023-yillar davomida O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlarining asosiy turlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi dinamikasi keltirilgan. Mazkur ko'rsatkichlar tarmoqda ichki talabning ortib borayotgani, eksport salohiyatining kuchayib borayotgani va yangi korxonalar ishga tushirilayotgani bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, tikuv-trikotaj mahsulotlari va paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining izchil o'sib borayotgani aholini mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlash hamda xorijiy bozorlar uchun raqobatbardosh mahsulotlar yetkazib berish imkonini kengaytirmoqda.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi

Yillar	Kalava ip (ming tonna)	Tayyor mato (mln.kv.m)	Trikotaj gazlama (ming tonna)	Tikuv- trikotaj mahsulotlari (mln.dona)	Paypoq mahsulotlari (mln.juft)
2019	448,9	348,9	89,9	536,0	135,0
2020	545,8	3807,	112,3	622,4	184,8
2021	592,7	415,4	140,4	722,8	252,9
2022	669,6	4501,	168,5	823,2	321
2023	1314	470,5	170,5	2010,4	920


Mamlakatimizda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yillik o'sish sur'atlari ham ushbu tarmoqning salohiyati ortib borayotganini yaqqol ko'rsatadi. 2019–2023-yillar oralig'ida to'qimachilik mahsulotlari bo'yicha barcha asosiy yo'nalishlarda sezilarli o'sish qayd etilgan.

Shuningdek, ishlab chiqarish hajmining ortishi moddiy resurslarga bo'lgan talabning ham o'sishini taqozo etadi. Biroq, korxonada resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va texnologik yo'qotishlarni kamaytirishga qaratilgan

chora-tadbirlar hisobiga umumiy xarajatlar strukturasida optimallik saqlanmoqda. Bu esa eksport qilinayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

“UzTEX” MChJ so‘nggi yillarda mahsulot ishlab chiqarish va eksport hajmini muntazam oshirishga erishib, sanoat korxonalari uchun namunali faoliyat modelini ko‘rsatmoqda. Bu natijalarga erishishda ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, resurslardan oqilona foydalanish va eksport strategiyasini izchil olib borish muhim omil bo‘lgan. Kelgusida ham bu ijobiy tendensiyani davom ettirish uchun innovatsion yechimlar, energiya tejamkor texnologiyalar va yangi bozorlarni egallash strategiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, “UzTEX” MChJda 2021–2023-yillar davomida ishlab chiqarish hajmi 914,2 mlrd so‘mdan 1 296,4 mlrd so‘mga oshgan. Eksport hajmi ham 80,3 mln. AQSh dollaridan 112,7 mln. dollargacha yetgan. Bu o‘shishlar, shubhasiz, korxonaning ichki ishlab chiqarish xarajatlari — ya’ni mahsulot tannarxi tarkibi bilan bevosita bog‘liqdir.



2-rasm. “UzTEX” MChJning mahsulot tannarxi tarkibi, 2023 yil

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mahsulot tannarxida asosiy o‘rinni xomashyo — ya’ni paxta tolasi egallaydi (47,5%). Bu to‘qimachilik sohasi uchun odatiy bo‘lib, ayniqsa “UzTEX” kabi tola yigirish va mato ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar uchun bu ko‘rsatkich muhim.

Yuqoridagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida “UzTEX” MChJ ishlab chiqarish xarajatlarini 15–20% ga kamaytirishni, xomashyo va materiallardan foydalanish samaradorligini 20–25% ga oshirishni, shuningdek, mehnat unumdorligini sezilarli darajada yaxshilashni rejalashtirmoqda. Bu esa korxonaning bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlash, yangi eksport imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o’ynaydi.

Strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun quyidagi bosqichlar tavsiya etiladi: birinchi navbatda korxonaning mavjud holatini batafsil tahlil qilish, so’ngra zamonaviy raqamli texnologiyalarni tanlab, ularni bosqichma-bosqich joriy etish. Ushbu jarayonda xodimlarni muntazam o’qitish va rag’batlantirish tizimini yaratish lozim. Nihoyat, amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligini doimiy monitoring qilish va zarurat tug’ilganda takomillashtirish muhimdir.

Natijada, yangi konsepsiya “UzTEX” MChJ uchun nafaqat optimal xarajatlarni boshqarish tizimini yaratadi, balki raqamli transformatsiya orqali korxonaning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirib, uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, “UzTEX” MChJda optimal xarajatlar strategiyasini joriy etish korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish, raqobatbardoshligini mustahkamlash va uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim omil bo’lib xizmat qilmoqda. Strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi texnik va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, xomashyo va materiallar oqimini to’g’ri rejalashtirish, chiqindilarni kamaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda kadrlar salohiyatini rivojlantirish orqali ta’minlanmoqda.

Raqamli transformatsiya, avtomatlashtirish, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahlilidan foydalanish orqali korxona xarajatlarini optimallashtirishda sezilarli natijalarga erishmoqda. Xomashyo va materiallardan foydalanish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish borasidagi chora-tadbirlar esa barqaror rivojlanishga zamin yaratmoqda.

Shu boisdan, “UzTEX” MChJ tajribasi asosida ishlab chiqilgan optimal xarajatlar strategiyasining yangi konsepsiyasi nafaqat korxona darajasida, balki respublika to’qimachilik sanoatining boshqa subyektlari uchun ham qo’llanilishi mumkin bo’lgan model sifatida tavsiya etiladi. U ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish va global bozorda raqobatdosh mahsulotlar yetkazib berishga xizmat qiladi.

Optimal xarajatlar strategiyasi sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Uni amalga oshirishda nazariy yondashuvlar bilan bir qatorda amaliy mexanizmlarni uyg'unlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajribadan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anthony, R. N., & Govindarajan, V. (2007). Management Control Systems (12th ed.). McGraw-Hill Education.
2. Brynjolfsson E., McAfee A. (2014). The Second Machine Age. Norton & Company.
3. Camp R.C. Benchmarking: The Search for Industry Best Practices that Lead to Superior Performance. – ASQC Quality Press, 1989.
4. Chandler, A. D. (1962). Strategy and Structure: Chapters in the History of the Industrial Enterprise. MIT Press.
5. Christopher M. (2011). Logistics and Supply Chain Management (4th ed.). Pearson Education Limited.
6. Cooper, R., & Kaplan, R. S. (1991). The Design of Cost Management Systems: Text, Cases, and Readings. Prentice Hall.
7. Davenport T., Ronanki R. (2018). "Artificial Intelligence for the Real World", Harvard Business Review.
8. Drucker P.F. The Practice of Management. – HarperBusiness, 1954.
9. Drucker, P. F. (1999). Management Challenges for the 21st Century. HarperBusiness.
10. G'ulomov S.S., To'laganov O.T. Strategik menejment. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
11. Grant R.M. Contemporary Strategy Analysis. – Wiley-Blackwell, 2016.
12. Humphrey A. SWOT Analysis for Management Consulting. – SRI Alumni Association Newsletter, 2005.
13. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Harvard Business Review Press, 1996.
14. Kaplan, R. S., & Mikes, A. (2012). Managing Risks: A New Framework. Harvard Business Review, 90(6), 48–60.
15. Marshall, A. (1890). Principles of Economics. Macmillan & Co.
16. Porter M E., Heppelmann J.E. (2014). "How Smart, Connected Products Are Transforming Competition", Harvard Business Review.
17. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – Free Press, 1985.
18. Porter M.E. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. – Free Press, 1980.

19. Porter, M. E. (1985). *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. Free Press.
20. Samuelson, P. A., & Nordhaus, W. D. (1980). *Economics* (12th ed.). McGraw-Hill.
21. Simons R. (1995). *Levers of Control: How Managers Use Innovative Control Systems to Drive Strategic Renewal*. Boston: Harvard Business School Press.
22. Thompson A.A., Strickland A.J. *Strategic Management: Concepts and Cases*. – McGraw-Hill Education, 2018.
23. Womack, J. P., & Jones, D. T. (1996). *Lean Thinking: Banish Waste and Create Wealth in Your Corporation*. Simon & Schuster.
24. Hakimov, Sh. X. (2020). Sanoat korxonalarida xarajatlar tizimini optimallashtirish mexanizmlari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, №6, 55–63-betlar.
- оршнев А.А. Конкурентоспособность предприятия: теория и практика. – М.: ИНФРА-М, 2014.

MUNDARIJA		
1-SHO'BA: ZAMONAVIY MUHANDISLIK TA'LIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT		6
<i>Turakulov O</i> <i>Asrayev M</i> <i>Karimov E</i>	QISHLOQ VRACHLIK PUNKTLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING RO'LI	6
<i>G'oipova Kh</i>	VOICE ANALYSIS TECHNOLOGIES SPECIAL ALGORITHMS AND ARTIFICIAL INTELLECT MODELS	11
<i>G'oipova Kh</i>	SECURITY MECHANISMS BASED ON VOICE AND VIDEO SYNTHESIS	17
<i>Sh.A.Toirov,</i> <i>T.E.Xudoyqulov</i>	METHODS AND SOLUTIONS FOR GENERALIZING AMPLITUDE AMPLIFICATION IN QUANTUM ALGORITHMS	23
<i>Rizayev X</i>	MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA AUTOCAD DASTURIDAN BIM TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN REVIT DASTURIGA O'TISHNING DIDAKTIK AFZALLIKLARI	27
<i>Turakulova Sh</i>	KO'Z TUBI TASVIRLARIDA QON TOMIR TARMOQLARINING DIAMETRI, EGRI-BUGRILIGI VA TARMOQLANISH BURCHAKLARI ASOSIDA DIAGNOSTIK TAHLIL	34
<i>Turakulov O,</i> <i>Jumaboyev D</i>	IJTIMOIIY TARMOQ YOZISHMALARIDAGI HISSIYOTLARNI TAHLILLASH MODELII	45
<i>X.T. Dusanov</i>	SUN'IY INTELLEKT ALGORITMLARI ASOSIDA TASVIRLAR SIFATINI OSHIRISH	49
<i>Yusupov R.A.</i>	YER OSTI SUVLARI GIDROSFERASI HARAKATINI SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA MODELLASHTIRISH	56
<i>Erhanova N</i>	BOLALARNING NUTQINI O'STIRISH ORQALI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH	64
<i>S.A. Olimov</i>	TA'LIM TIZIMIGA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH JIHATLARI	70
<i>Shadmanov S</i>	SUN'IY INTELLEKTNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	77
2-SHO'BA: MUHANDISLIK YECHIMLARI VA SANOAT 4.0		82
<i>Норматов Ш,</i> <i>Туражонов К,</i>	МЕТОД ОЦЕНКИ УСТОЙЧИВОСТИ ОТКОСОВ И УСТУПОВ КАРЬЕРА	82

Логинов П, Акбаров Н		
Егорова В.В.	ЖИВУЧЕСТЬ И ТЕХНИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ КОНСТРУКЦИЙ КАРКАСА ЗДАНИЯ В РЕЗУЛЬТАТЕ ОСОБОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ	89
Ochilova I	O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA GENDER TENGLIK INDIKATORLARINI RAQAMLI MONITORING QILISH MEXANIZMLARI	104
Axmedov X, Sharipov K	KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA ZAMONAVIY TAHLIL METODLARINING AHAMIYATI	109
Khidirova D	TOWARDS TRUSTWORTHY WILDFIRE DETECTION: INTEGRATING EXPLAINABILITY AND UNCERTAINTY IN DEEP LEARNING MODELS	113
Axmedov X, Sharipov K	RAQOBAT STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH ASOSIDA KORXONANI STRATEGIK BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	120
Narbayev Sh, Abduqayumov A	DAVLAT KORXONALARIDA ESG STANDARTLARI ASOSIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	126
Omonturdiyev O	SIFATLI NOTO'QIMA MATO OLISH UCHUN JUN TOLASINI CHO'TKALI BARABAN ORQALI SAMARALI TOZALASH VA UZATISH JARAYONINING NAZARIY TAHLILI	132
Rashidov J.X., Kaipov A. K	IQTISODIY MODERNIZATSIYA JARAYONIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	143
Rashidov J.X., Kaipov A. K	IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA VA DIVERSIFIKATSIYA QILISH JARAYONIDA KORXONALARDAGI MOLIVAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	147
Kadirjanova M	KORXONALARDA INNOVATSION RIVOJLANISHNI BOSHQARISH STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	158
Kadirjanova M	KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.	166

<i>R.M. Tursunova, M.E. Tursunov, G. Abduraxmanov, A.T. Dexqonov, Sh.M. Norbekov, D.R. Jumaboyev</i>	LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHASIDA SIZIB O'TISH BUSAG'ASIGA TEXNOLOGIK OMILLAR TA'SIRI	173
3-SHO'BA: ROBOTOTEXNIKA VA AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV TIZIMLARI		179
<i>Asrayev M, Tursunaliyeva O</i>	HTTP GET ORQALI SERVERGA ULANISH.	179
<i>M.E. Tursunov, Sh.M. Norbekov</i>	AVTOMOBILLAR UCHUN PELTIER EFFEKTI ASOSIDAGI MINI AQLLI SUV SOVITISH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA TADQIQ ETISH	188
<i>Yakubov S, Xasanova Sh.</i>	ROBOTOTEXNIKA VA AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV TIZIMLARINING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI INTELLEKT	194
4-SHO'BA: KIBERXAVFSIZLIK VA MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH		201
<i>Sh.A.Toirov, A.A.Seytnazarova, T.E.Xudoyqulov</i>	OPTIMIZING GLOBAL SEARCH PROBLEMS USING GROVER'S QUANTUM ALGORITHM	201
<i>Toshpo'latov Sh</i>	VEB-ILOVALARDA HTTP XAVFSIZLIK SARLAVHALARINI JORIY ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI	209
<i>Очилов Н, Набиев С</i>	АНАЛИЗ АРХИТЕКТУРНОГО СЛОЯ ИСТОЧНИКОВ ДАННЫХ DLP-СИСТЕМ ДЛЯ ГИБРИДНЫХ КОРПОРАТИВНЫХ СРЕД	215
<i>Toirov Sh, Asrayev M, Yo'ldoshaliyeva G</i>	KIBERHUJUM VA UNGA QARSHI KURASH	225
<i>Karabayev R.</i>	O'ZBEKISTONDA KIBERXAVFSIZLIK HOLATINI BAHOLASH VA KIBERXAVFLARNING STATISTIK TAHLILI	229

5-SHO'BA: TA'LIMDA AXBOROT VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI		237
<i>Suyunov Y, Nazarov U</i>	RAQAMLI TA'LIM TEKNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA MOLIVAVIY NAZORATINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI HOLATI	237
<i>Gulyamova Sh</i>	THE NEW SETUP IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING (ELT): THE INTEGRATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND STANDARD CLASSES	247
<i>Xashimov A, Mamatov A</i>	KADRLARNI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH UCHUN ELEKTRON BAHOLASH TIZIMLARI TAHLILI	252
<i>Mirzaev R.</i>	MATERIALLARNI ME'YORLASHTIRISH JARAYONIDA DATA ANALITIKA VA SUN'IY INTELLEKT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI	264
<i>Xaydarov S</i>	TALABALARNI TARBIYALASHDA JISMONIY VA MA'NAVIY BARKAMOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARIDA AXBOROT VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI	269
<i>Anarkulova G, Mamajonova R.</i>	OLIY TA'LIMDA MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	278
<i>Sherova D.</i>	OLIY TA'LIMDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI	284
<i>Mukhamadiyev A, Sh.A.Toirov</i>	OPTIMIZING EDUCATIONAL PROCESSES WITH GENERATIVE AI: INNOVATIVE INSTRUCTIONAL DESIGN AND AUTOMATED ASSESSMENT TOOLS	290
<i>Xoshimova M.</i>	AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA KONFLIKTOLOGIK	301

	KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH	
<i>Olamova M.</i>	PEDAGOGIK LOYIHALASHDA TALABALARDA AXBOROT-KONSTRUKTIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI	306
<i>Mamadaliyev N.</i>	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA “MA’LUMOTLAR TUZILMASI VA ALGORITMLAR” FANINING DASTURIY TA’MINOTINI PEDAGOGIK QO’LLASH METODIKASI	311
<i>G’aniyeva M. Yunusova I</i>	BARQAROR RIVOJLANISH HISOBOTI (ESG) – KORXONALARNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY AUDITI SIFATIDA	315
<i>Juraboyeva Sh.</i>	TA’LIM VA BIZNES INTEGRATSIYASIDA RAQAMLI PLATFORMALARNING AHAMIYATI.	320
<i>Anvarov D.</i>	O’ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANINI O’QITISHDA AXBOROT VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING QO’LLANILISHI: METODOLOGIK TAHLIL VA SAMARADORLIK	326
<i>Usmonova M.</i>	TELEFONGA TOBELIK – NOMOFOBIYA: ZAMONAVIY DAVRNING PSIXOLOGIK ILLATLARI.	331
<i>Jo’rayeva N</i>	KORXONALARDA BOSHQARUV JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH: CRAFERS SHIRINLIKLAR KORXONASI MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT	340
<i>A. M. Романова, С.А. Олимов</i>	ЗНАЧЕНИЕ СЕТЕВОЙ ФОРМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ПРИ РЕАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ УВО ДЛЯ ИНЖЕНЕРНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ	349
<i>Suyunova N</i>	RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQIY VA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH	354
<i>Уснитдинов М</i>	РОЛЬ РУССКОГО ЯЗЫКА В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА).	361

6-SHO'BA: BIZNES JARAYONLAR VA RAQAMLI IQTISODIYOTGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI.		368
<i>Axmedov X.D, Kamalov Sh.F</i>	SANOAT KORXONALARIDA OPTIMAL XARAJATLAR STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI	368
<i>Sodiqov M</i>	TOVARLAR VA XIZMATLARNI KENG TABAQALASHTIRISH YO'NALISHLARI	381
<i>R.B.Mirzayev</i>	REKLAMA TIZIMI VA SOTUV JARAYONINI MUVOFIQLASHTIRISH MASALALARI.	388
<i>Primov S, Akramov J</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI	392
<i>Karabayev R.</i>	ИСККУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА	401
<i>Абдураимова Н, Зоҳидов А</i>	ПУТИ ДОСТИЖЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЗА СЧЁТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СЕТЕЙ В УЗБЕКИСТАНА	407
<i>М.Асраев, Ш.Акбаров</i>	ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ФУНДАМЕНТ КОМПОЗИТНОГО БИЗНЕСА	417
<i>Abduraimova N, Zohidov A</i>	BARQAROR TARMOQLARNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI BAHOLASHNING DOLZARB MODELLARI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	422
<i>Samatov A, Turdibekova S.</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORPORATIV BOSHQARUV JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLIGYALARNI JORIY QILISHNING SAMARADORLIGI.	430
<i>Samatov A, Turdibekova S.</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORPORATIV BOSHQARUV ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY MODELLARI TAHLIL QILISH	435
<i>Toxirov J.</i>	EKOLOGIK STANDARTLAR JORIY ETILISHIDA BUYRUQBOZLIK VA BOZOR MEKANIZMLARINING TA'SIRI	440

<i>Maxmudov J.</i>	O'ZBEKISTONNING "TASHQI QARZ ORQALI RIVOJLANISH STRATEGIYASI"	450
<i>Shoyev D, Abdullayeva G.</i>	BOSHQARUV SIFATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	459
<i>Daminova O', Pulatov Sh.</i>	QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARINING IQTISODIY MOHIYATI, TASNIFI VA FAOLIYAT XUSUSIYATLARI	467
<i>Daminova O', Pulatov Sh.</i>	QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI XALQARO BOZORLARGA OLIB CHIQISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	471
<i>Narbayev Sh.K. Nabixonov S.</i>	BIZNES ETIKASIDAN KORPORATIV MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA FOYDALANISH	480
<i>Muydinov N</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA IT TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI	487
<i>Primov S, Shakirov X.</i>	DAVLAT TASHQI QARZI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	491
<i>Primov S, Shakirov X</i>	RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA "YASHIL" IQTISODIYOTNING STRATEGIK YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI.	498
<i>Bozorov J</i>	MEHNAT MIGRATSIYASINI KAMAYTIRISHDA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY AHAMIYATI	505
<i>Mamajonov A</i>	STARTAPLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH MARKAZLARI FAOLIYATI: JAHON TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	511
<i>Samatov A, Kushbakov B</i>	KORXONANING IQTISODIY SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONLARI	516
<i>X.D.Axmedov, Kamalov.Sh</i>	KORXONADA TEXNIKAVIY VA MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH TAHLILI	521
<i>Karabayev R</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT: NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	527
<i>Туракулов О, Асраев М,</i>	ЛУЧШИЕ РЕШЕНИЯ ДЛЯ ОПТИМИЗАЦИИ ЛОГИСТИКИ	532

<i>Мирзаева О.</i>		
<i>Алимов О</i>	ФОРСИРОВАННАЯ ИНТЕРНАЦИОНАЛИЗАЦИЯ БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ: ИИ-ПОДХОД ДЛЯ ЭКСПАНСИИ НА ВНЕШНИЕ РЫНКИ	543
<i>Nazarov X</i>	OCHIQ BANK (OPEN BANKING) FAOLIYATINING XALQARO TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA QO'LLANILISHI	551
<i>Narbayev Sh.K, Nabixonov S</i>	ISHBILARMONLIK ETIKASINI RIVOJLANTIRISHNI KORPORATIV MADANIYATGA TA'SIRI	560
<i>R.B.Mirzayev</i>	TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SOLIQ HUQUQI MADANIYATINING AHAMIYATI	572
<i>Narbayev Sh.K, Axmadaliyev V.A.</i>	QISHLOQ XO'JALIGI YERLARI MONITORINGINI YURITISHDA MASOFADAN ZONDLASH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	580
<i>Soliyev D</i>	SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH: AFZALLIKLARI VA IMKONIYATLARI	590
<i>Samatov A, Allanov U</i>	SIFAT MENEJMENT TIZIMIDA NOMUVOFIQLIKLARNI ANIQLASH USULLARI	597
<i>Narbayev Sh, Abdufattoxova H</i>	MENEJMENT FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKTNING INNOVATSION YECHIMLARI	600
<i>Narbayev Sh.K, Abduqayumov A</i>	KORXONALARDA ESG (Environmental, Social, Governance) KO'RSATKICHLARINI JORIY ETISHDA MENEJMENTNING ROLI	605
<i>Primov S, Akramov J</i>	DAVLAT MOLIVASINING BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING ASOSIY MUAMMOLARI VA BARTARAF ETISH YO'LLARI	611

Ingliz tili muharriri: Norbekov Shohzod Mamarasul o'g'li
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **"Management and Economics Scientific Research Journal"** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

"Management and Economics Scientific Research Journal" jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114